

IX. KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI

2025- yil yanvar-dekabr

1. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni tahlili
2. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
3. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
4. Kichik biznesning hajmi va tarmoqlardagi ulushi
5. Kichik tadbirkorlik to'g'risidagi statistika ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

1. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni tahlili

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Ro'yxatga olingan kichik korxonalar va mikrofirmalar 2026- yilning 1- yanvar holatiga **59063** tani tashkil etdi.

2026- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar (*fermer va dehqon xo'jaliklarisiz*) soni jami **40139** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **8556** tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik va mikrofirmalarning eng ko'pi Zangiota tumanida – **4925** tani (*jamiga nisbatan 12,3 %*), Qibray tumanida – **3554** tani (*8,9 %*), Toshkent tumanida – **2930** tani (*7,3 %*) tashkil etdi.


2. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, **40524** ta faol tijorat korxonalaridan **33454** tasi (*jamiga nisbatan 82,6 %*) mas'uliyati cheklangan jamiyatlar bo'lib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.

Xususiy korxonalar **3522** tani (*8,7 %*), aksiyadorlik jamiyati **46** tani (*0,1 %*), oilaviy korxonalar **3306** tani (*8,2 %*) tashkil etadi.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlarisoni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	33454	82,6
Xususiy korxonalar	3522	8,7
Oilaviy korxonalar	3306	8,2
Aksiyadorlik jamiyati	46	0,1
Boshqalar	196	0,5

3. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning sohalar kesimida soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), birlikda



Mamlakat iqtisodiyoti "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, buning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

4. Kichik biznesning hajmi va tarmoqlardagi ulushi

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

- yalpi hududiy mahsulotda yalpi qo'shilgan qiymati hajmi **96 514,4** mlrd so'mni tashkil qilib, ulushi **55,0 %** ni (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 55,1 %);

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi **45 608,0** mlrd so'mni, ulushi **31,8 %** ni (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 30,9 %);

- qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmi **48 368,9** mlrd so'mni, ulushi **91,5 %** ni (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 89,0 %);

- investitsiyalar hajmi **44 103,5** mlrd so'm miqdorida bo'lib, ulushi **55,6 %** ni (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 45,1 %);

- **28 537,1** mlrd so'mlik qurilish-pudrat ishlari bajarildi va ulushi **84,0 %** ni (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 82,4%);


- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmi **39 726,9** mlrd so'm miqdorida bo'lib, ulushi **87,9 %** ni (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 85,7 %);

- xizmatlar umumiy hajmi **52 427,6** mlrd so'm miqdorida bo'lib, ulushi **73,0 %** ni (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 73,7 %);

- **886,0** mln. AQSH dollari miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilinib, ulushi **44,7 %** ni (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 35,4 %);

- **3 095,3** mln. AQSH dollari miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilinib, ulushi **62,0 %** ni (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 53,5 %) tashkil qildi.

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar)
umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi**
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



Kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, %da

	Sanoat	Qishloq xo'jalik	Inves-titsiya	Qurilish	Savdo	Xizmat	Eksport	Import
Viloyat bo'yicha	31,8	91,5	55,6	84,0	87,9	73,0	44,7	62,0
<i>shaharlar:</i>								
Nurafshon	18,8	99,7	33,6	86,8	72,1	32,4	68,8	58,5
Olmaliq	2,0	80,9	16,6	25,2	89,2	71,0	2,9	3,0
Angren	28,3	91,5	53,7	88,2	92,7	65,3	48,3	36,8
Bekobod	7,0	99,9	44,3	97,9	85,4	86,1	63,5	18,4
Ohangaron	40,9	99,8	57,9	99,1	90,7	68,7	60,4	66,9
Chirchiq	44,7	99,9	63,5	90,0	74,8	71,4	31,3	77,9
Yangiyo'l	80,4	98,6	90,8	99,6	93,1	90,7	96,9	88,0
<i>tumanlar:</i>								
Oqqo'rg'on	97,6	96,6	93,6	71,4	97,8	83,2	91,8	98,4
Ohangaron	12,0	87,9	72,3	96,2	94,6	74,1	20,0	42,6
Bekobod	70,9	97,2	77,9	63,3	95,5	78,6	99,9	88,6
Bo'stonliq	35,2	95,1	56,5	80,7	70,5	58,0	36,4	68,1
Bo'ka	95,8	90,9	66,0	79,7	94,2	85,1	100,0	99,5
Quyichirchiq	79,0	88,9	67,5	99,2	94,6	59,5	74,5	84,6
Zangiota	96,9	94,9	67,1	87,3	84,6	61,1	92,5	94,5
Yuqori Chirchiq	71,1	92,6	67,1	91,2	90,7	76,5	64,9	91,9
Qibray	27,1	87,6	48,1	59,9	93,7	59,2	88,8	45,8
Parkent	88,9	94,0	73,3	95,5	95,5	77,8	57,0	96,1
Piskent	26,0	88,6	14,9	98,1	92,9	71,0	25,7	7,1
O'rta Chirchiq	52,7	76,0	90,3	96,7	97,0	74,8	84,1	87,0
Chinoz	75,0	97,8	84,0	99,0	93,2	63,7	56,6	39,2
Yangiyo'l	51,8	80,4	65,6	99,0	90,7	84,8	49,1	64,6
Toshkent	90,4	96,8	82,6	99,5	87,1	74,4	90,5	91,9

5. Kichik tadbirkorlik statistikasi ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Kichik biznesning tarmoqlar bo'yicha ulushini shakllantirish tarmoq boshqarmalarining tegishli nizomlari asosida amalga oshiriladi.

Qoidalarga muvofiq kichik tadbirkorlik rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari yakka tartibdagi tadbirkorlarning faoliyatini hisobga olgan holda, joriy narxlarda amalga oshiriladi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmlar o'zgarishi narx indeksi o'zgarishlarini inobatga olgan holda hisoblab chiqiladi.